


## QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-sentyabr)


2019 yil yanvar-sentyabr oylari yakunlariga ko‘ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 546,6 mln.AQSh dollarini tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 2,0 %ga ko‘paydi. Shu jumladan, eksport hajmi 333,5 mln. AQSh dollarga va import hajmi 213,1 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosi 120,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

### Qoraqalpog‘iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mln.AQSh dollari)




Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,9 %ni tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 98,9 % ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 61,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 4,1 %ga oshgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 49,5 %ni, boshqa davlatlar 50,5 %ni va import hajmida MDH davlatlari 22,3 %ni, boshqa davlatlar 77,7 %ni tashkil qildi.

## 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning sentyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, avgust oyiga nisbatan 2,6 mln. AQSh dollarga ko'p eksport qilindi va 38,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 20,1 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa avgust oyiga nisbatan 5,1 mln. AQSh dollariga ko'proqdir.

## 2019 yil yanvar-sentyabrda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi (mln. AQSh dollari)



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko`rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollari)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'sish sur'ati, %
Xitoy	140,0	82,7	57,3	25,6	112,4
Rossiya	138,6	110,4	28,2	25,4	96,3
Turkiya	64,1	46,6	17,5	11,7	72,3
Qozog'iston	58,8	46,8	12,0	10,8	113,6
Koreya Respublikasi	49,9	16,4	33,5	9,1	145,7
Latviya	18,0	14,3	3,7	3,3	79,7
Vietnam	11,5	0,0	11,5	2,1	197,2
Buyuk Britaniya	7,5	0,0	7,5	1,4	4,9 b.
Eron	4,9	0,2	4,7	0,9	2,3 b.
Ukraina	4,9	2,1	2,8	0,9	48,6
Turkmaniston	3,5	0,4	3,1	0,6	194,3
Hindiston	3,4	0,4	3,0	0,6	6,2 b.
Qirg'iziston	3,3	2,3	1,0	0,6	93,8

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 38,9 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,9 %ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida 59,9 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 61,1 %ga etdi.

## Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

(mln.AQSh dollari)


Davlat nomi	2017 yil yanvar-sentyabr	2018 yil yanvar-sentyabr	2019 yil yanvar-sentyabr
<b>Xitoy</b>	<b>118,5</b>	<b>124,5</b>	<b>140,0</b>
eksport	89,6	90,0	82,7
Import	28,9	34,5	57,3
saldo	60,7	55,5	25,4
<b>Rossiya</b>	<b>99,8</b>	<b>144,0</b>	<b>138,6</b>
eksport	70,5	100,8	110,4
import	29,3	43,2	28,2
saldo	41,2	57,6	82,2
<b>Turkiya</b>	<b>99,2</b>	<b>88,7</b>	<b>64,1</b>
eksport	92,7	77,9	46,6
import	6,5	10,8	17,5
saldo	86,2	67,1	29,1
<b>Qozog'iston</b>	<b>33,6</b>	<b>51,8</b>	<b>58,8</b>
eksport	32,4	42,4	46,8
import	1,2	9,4	12,0
saldo	31,2	33,0	34,8
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>18,7</b>	<b>34,3</b>	<b>49,9</b>
eksport	0,5	6,2	16,4
import	18,2	28,1	33,5
saldo	-17,7	-21,9	-17,1
<b>Latviya</b>	<b>30,2</b>	<b>22,6</b>	<b>18,0</b>
eksport	29,8	19,2	14,3
import	0,4	3,4	3,7
saldo	29,4	15,8	10,6
<b>Vietnam</b>	<b>0,5</b>	<b>5,8</b>	<b>11,5</b>
eksport	0,5	1,0	0,0

Davlat nomi	2017 yil yanvar-sentyabr	2018 yil yanvar-sentyabr	2019 yil yanvar-sentyabr
import	0,0	4,8	11,5
saldo	0,5	-3,8	-11,5
<b>Buyuk Britaniya</b>	<b>0,7</b>	<b>1,5</b>	<b>7,5</b>
eksport	0,0	0,0	0,0
import	0,7	1,5	7,5
saldo	-0,7	-1,5	-7,5
<b>Eron</b>	<b>2,8</b>	<b>2,1</b>	<b>4,9</b>
eksport	2,4	0,3	0,2
import	0,4	1,8	4,7
saldo	2,0	-1,5	-4,5
<b>Ukraina</b>	<b>8,0</b>	<b>10,1</b>	<b>4,9</b>
eksport	3,2	3,2	2,1
import	4,8	6,9	2,8
saldo	-1,6	-3,7	-0,7
<b>Turkmaniston</b>	<b>0,2</b>	<b>1,8</b>	<b>3,5</b>
eksport	0,2	0,2	0,4
import	0,0	1,6	3,1
saldo	0,2	-1,4	-2,7
<b>Hindiston</b>	<b>0,6</b>	<b>0,6</b>	<b>3,4</b>
eksport	0,3	0,1	0,4
import	0,3	0,5	3,0
saldo	0,0	-0,4	-2,6
<b>Qirg'iziston</b>	<b>5,0</b>	<b>3,5</b>	<b>3,3</b>
eksport	5,0	3,5	2,3
import	0,0	0,0	1,0
saldo	5,0	3,5	1,3


## EKSPORT

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida eksport hajmi 333,5 mln.AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,4 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (79,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,3 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSh dollari)



### Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (%)




### Eksport tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	333,5	93,5	100	165,0	108,8	100	168,5	82,2	100
<b>Paxta tolasi</b>	3,5	-	1,1	-	-	-	3,5	-	2,1
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	27,8	126,2	8,3	9,0	190,1	5,5	18,8	108,7	11,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	265,0	83,7	79,5	148,8	104,1	90,2	116,2	67,0	69,0
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	2,5	33,9	0,7	0,8	70,3	0,5	1,7	26,8	1,0
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	2,0	16,2 b.	0,6	0,0	13,9	0,0	2,0	159,8 b.	1,2
<b>Xizmatlar</b>	1,9	106,7	0,6	1,2	105,5	0,7	0,7	109,0	0,4
<b>Boshqalar</b>	30,8	3,5 b.	9,2	5,2	3,5 b.	3,1	25,6	3,5 b.	15,1

Eksport qilinyotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati may oyida kuzatilgan.

### Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning sentyabr oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar avgust oyiga nisbatan 15,9 %ga ko'paygan.

Xizmatlar eksporti hajmi 1,9 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,6 %ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,7 %ga o'sganligi kuzatildi.

Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (40,1 %), safarlar (36,3 %) va transport xizmatlari (22,2 %) hissasiga to'g'ri keladi.


### Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)






Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning sentyabr oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, avgust oyiga nisbatan 2,5 mln. AQSh dollariga ko'p eksport qilindi va 38,4 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,3 mln. AQSh dollarga etgan.

**2019 yil yanvar-sentyabrda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi**  
(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




**Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
(yanvar-sentabr)

2018 YIL



2019 YIL



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Qozog'iston hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 71,9 %ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Qozog'istonga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

### Qoraqalpog'iston Respublikasining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'рни	
	2018 yanvar- sentyabr	2019 yanvar- sentyabr	2018 yanvar- sentyabr	2019 yanvar- sentyabr	2018 yanvar- sentyabr	2019 yanvar- sentyabr
Rossiya	100,8	110,4	28,3	33,1	1	1
Xitoy	90,0	82,7	25,2	24,8	2	2
Qozog'iston	42,4	46,8	11,9	14,0	4	3
Turkiya	77,9	46,6	21,9	14,0	3	4
Koreya Respublikasi	6,2	16,4	1,7	4,9	6	5
Latviya	19,2	14,3	5,4	4,3	5	6
Tojikiston	1,2	2,4	0,3	0,7	11	7
Qirg'iziston	3,5	2,4	1,0	0,7	7	8
Ukraina	3,2	2,1	0,9	0,6	8	9
Iroq	2,1	1,4	0,6	0,4	10	10
Estoniya	3,0	1,2	0,8	0,4	9	11

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 21 772,6 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 8 774,9 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 176,0 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida 14 804,1 tonna sabzavotlar 4 744,0 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 4 416,4 tonna meva va rezavorlar 2 824,1 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3 058,5 tonnaga ko'paygan.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida uzum va qovun-tarvuz eksport hajmi 946,6 ming AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 barobarga o'sgan).

### Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi


Davlat nomi	2018 yil yanvar-sentyabr			2019 yil yanvar-sentyabr		
	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %	tonna	ming AQSh doll.	ulushi, %
Qozog'iston	20 197,2	3 767,6	75,6	16 369,2	6 432,6	73,3
Rossiya	1 179,4	771,3	15,5	3 996,7	1 444,7	16,5
Bolgariya	-	-	-	66,7	310,6	3,5
Qirg'iziston	-	-	-	234,9	272,6	3,1
Ukraina	-	-	-	21,5	101,1	1,2
Turkiya	72,0	46,1	0,9	502,6	66,0	0,8
Fransiya	-	-	-	17,5	48,6	0,6
Ruminiya	-	-	-	252,0	36,3	0,4
Turkmaniston	10,0	7,3	0,1	275,9	32,5	0,4
Xitoy	-	-	-	25,5	24,7	0,3
Polsha	-	-	-	10,1	5,2	0,1

### 2019 yil yanvar-sentyabrda meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi (umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)

2018 yil




2019 yil




## IMPORT

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida import hajmi 213,1 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,9 %ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (56,4 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (10,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,7 %) va xizmatlar (3,9 %) guruhlariga hisobiga to'g'ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (ming AQSh dollari)



### Tovar va xizmatlar importi ulushi, (%)




### Import tarkibi

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSh doll.	o'tgan yilga nisbatan, %	Umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Import</b>	213,1	118,9	100	47,5	75,1	100	165,6	142,8	100
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	12,1	150,3	5,7	11,8	147,7	24,9	0,3	3,8 b.	0,2
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	22,6	83,9	10,6	2,5	71,5	5,2	20,1	85,8	12,1
<b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b>	7,6	160,9	3,5	2,1	172,3	4,4	5,5	157,0	3,3
<b>Qora va rangli metallar</b>	1,9	37,2	0,9	0,5	19,2	1,0	1,4	54,4	0,9
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	120,2	152,5	56,4	11,0	103,8	23,2	109,2	160,0	65,9
<b>Xizmatlar</b>	8,3	85,5	3,9	1,1	33,2	2,4	7,2	113,0	4,3
<b>Boshqalar</b>	40,4	88,1	19,0	18,5	54,2	38,9	21,9	186,0	13,3

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari sentabr oyida kuzatilgan.

### Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning sentyabr oyida import qilingan tovar va xizmatlar avgust oyiga nisbatan 68,1 %ga ko'paygan.

### Qoraqalpog'iston Respublikasiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

Davlat nomi	Mln. AQSh doll.		Ulushi, %		O'рни	
	2018y. yanvar- sentyabr	2019y. yanvar- sentyabr	2018y. yanvar- sentyabr	2019y. yanvar- sentyabr	2018y. yanvar- sentyabr	2019y. yanvar- sentyabr
<b>Xitoy</b>	34,5	57,3	19,3	26,9	2	1
<b>Koreya Respublikasi</b>	28,1	33,6	15,7	15,8	3	2
<b>Rossiya</b>	43,2	28,2	24,1	13,2	1	3
<b>Turkiya</b>	10,7	17,5	6,0	8,2	4	4
<b>Qozog'iston</b>	9,4	12,0	5,2	5,6	5	5
<b>Vietnam</b>	4,9	11,5	2,7	5,4	6	6

Buyuk Britaniya	1,5	7,5	0,9	3,5	10	7
Eron	1,8	4,7	1,0	2,2	8	8
Latviya	3,4	3,8	1,9	1,8	7	9
Italiya	1,2	3,1	0,7	1,5	11	10
Turkmaniston	1,6	3,1	0,9	1,5	9	11
Hindiston	0,4	3,0	0,2	1,4	12	12

### Xizmatlar importi tarkibi,(%)




Xizmatlar importi hajmi 8,3 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 3,9 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 85,5 %ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (83,5 %) hamda moliyaviy xizmatlar (7,8 %)dan iborat bo'ldi.



## 2019 yil yanvar-sentyabrda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi


(oylar kesimida, mln. AQSh dollari)




Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar sentabr oyida, avgust oyiga nisbatan 5,1 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 4,8 mln. AQSh dollarga va xizmatlar 0,3 mln. AQSh dollarga ko'p import qilingan.

## Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-sentyabr)

2018 yil



2019 yil



2019 yilning yanvar-sentyabr oylarida respublikaga 45 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston va Vietnam hamkor davlatlaridan jami import hajmi 160,1 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 75,1 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganligini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

#### Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	XITOIY	VIETNAM	TURKIYA	ROSSIYA	BUYUK BRITANIYA
mln. AQSH doll.	53,5	11,4	10,8	6,9	6,7
O'tgan yilga nisbatan, %	179,8	2,4 b.	2,1 b.	175,9	10,7 b.
Ulushi, %	44,5	9,5	9,0	5,7	5,5

#### Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	KOREYA RESPUBLIKASI	ROSSIYA	QATAR	XITOIY	POLSHA
mln. AQSH doll.	11,4	1,5	1,3	1,2	1,2
O'tgan yilga nisbatan, %	74,5	82,4	-	156,8	7,5 b.
Ulushi, %	50,4	6,7	5,8	5,5	5,5

### Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

DAVLAT NOMI	QOZOG'ISTON	ROSSIYA	UKRAINA	TURKMANISTON
mln. AQSH doll.	8,2	2,7	0,5	0,4
O'tgan yilga nisbatan, %	152,4	9,8 b.	29,4	-
Ulushi, %	67,2	22,1	4,0	3,7

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-82-06**